

SHIFOKOR AXLOQI. SHIFOKOR XATOSI. YADROGENIYA

*Saparov Bekzod Asiljon o'gli*  
*Toshkent Davlat Stomatologiya instituti*



*EL- YURTIMIZ AZALDAN SHIFOKORLARNI, INSON SALOMATLIGINI ASRASHDEK EZGU VA SAVOBLI ISHGA BUTUN BORLIG'INI BAG'ISHLAGAN FIDOYI ZOTLAR , DEB BILADI VA HAMISHA QADRLAYDI. CHUNKI ODAMLAR SIZLARGA O'ZLARINING ENG BEBAHO BOYLIKLARINI- HAYOTLARINI ISHONIB TOPSHIRADI. BUYUK BOBOMIZ ABU ALI IBN SINONING : "INSON DARDIGA DARMON BO'LMOQ – OLIJANOBLIKNING ENG YUKSAK NA'MUNASIDIR", DEGAN SO'ZLARI HAM BU FIKRNI TASDIQLAYDI.*

*SH.M.MIRZIYOYEV*

**ANNOTATSIYA:** HOZIRGI SHU KECHA KUNDUZDA RO'Y BERAYOTGAN MUAMMOLAR VAZIYATLARNI BARCHAMIZ KO'RIB TURIBMIZ, VA JUDA YAXSHI BILAMIZ. BUNGA KO'Z YUMIB BO'LMAydi. BU VAZIYATLARNING AKSARIYAT KO'PCHILIGI SHIFOKORLAR VA BEMOR INSONLAR ORQALI YUZ BERMOQDA. SHIFOKORLARNING AYRIM ARZIMAS SUHBATLARGA E'TIBOR BERMASLIGI JUDA KATTA KELISHMOVCHILIKLARGA ASOSIY SABAB BO'LMOQDA. VA YANA SHUNI TA'KIDLAB O'TISH JOIZKI SHIFOKOR VA BEMOR SUHBATIDA SHIFOKORNING SO'ZLASHISH DOIRASIDAN VA O'ZIGA YUKLATILGAN VAZIFADAN CHETGA CHIQISHI BERMORLARNING AHVOLINI OG'IRLASHISHIGA SABAB BO'LMOQDA. BU JARAYONNING OXIRI O'LIM BILAN TUGASH HOLATI HAM MAVJUD. SHU

MASALADAN KELIB CHIQIB SHIFOKOR AXLOQI YADROGENIYA TUSHUNCHALARINI KENGROQ TARG'IB QILISH, MUHOKAMA QILISHIMIZ LOZIM.

**KALIT SO'ZLAR:** YADROGENIYA, SOMATIK YADROGENIYA, Miyokardiy distrofiya, menopauza, anesteziya, intoksikatsiya

**KIRISH:** IJTIMOY TARMOQLARDA SHIFOKORLAR TAZYIQQA UCHRAYOTGANI HAQIDAGI XABARLARGA TEZ-TEZ KO'ZIMIZ TUSHYAPTI. KUNI KECHA IJTIMOY TARMOQLARDA NAMANGAN SHIFOXONALARNING BIRIDA FUQARO SHIFOKORNI AYOVSIZ KALTAKLAYOTGANI AKS ETGAN VIDEOLAVHA TARQALDI. BEMOR YOKI BEMOR YAQINLARINING EL SALOMATLIGI YO'LIDA O'Z KASBINI ADO ETAYOTGAN SHIFOKORGA QO'L KO'TARAYOTGANINI ESHITGANIMDA YURAGIM ACHISHADI. UZOQ VAQT ANA SHU VOQEA TA'SIRIDAN CHIQA OLMAY YURAMIZ. CHUNKI KO'PCHILIGIMIZ SHU KASB SOHIBI BO'LISHGA, SHU KASBDA ANCHA YILLAR XIZMAT QILIB, ODAMLAR MEHRINI QOZONISHGA HARAKAT QILAAMIZ.

ENDI SAVOL TUG'ILISHI TABIIY. BU HOLAT QACHONGACHA DAVOM ETADI? BUGUN MAMLUKATIMIZNING U TOMONIDAN, ERTAGA BU TOMONIDAN SHIFOKORLAR DO'PPOSLANGANLIGI YOKI TAZYIQQA UCHRAGANI HAQIDAGA MUDHISH VOQEALAR YUZ BERAVERADIMI? AGAR KENG JAMOATCHILIK, DEPUTATLAR VA RAHBARLAR ANA SHU SAVOLGA ANIQ BIR JAVOB TOPISHMASA, MASALANI HAL ETISHDA O'ZLARINI DAXLDOR EKANINI HIS ETISHMASA, MASALA JIDDIY TUS OLIISHI TAYIN.

NAZARIY JIXATDAN XIZMAT VAZIFASINI ADO ETAYOTGAN, EL SALOMATLIGI YO'LIDA TUNNI KUNGA ULAYOTGAN SHIFO AHLINI HAR BIRIMIZ HIMOYA QILISHIMIZ LOZIM. CHUNKI SHIFOKORDA HECH AYB YO'Q. BA'ZAN ONDA-SONDA QO'POL YOKI QO'RS TIBBIYOT XODIMI HAM UCHRAB QOLISHI MUMKIN. GURUCH KURMAKSIZ BO'LMAYDI. AMMO ULAR BARMOQ BILAN SANARLI HOLATDA. ASLIDA ESA SHIFOKORLARIMIZ OCHIQ KO'NGIL, BAG'RIKENG VA MEHNATKASH INSONLAR. ULARNING FIKRI-ZIKRI ODAMLARNI QUTQARISH, ULARGA HAYOT BAG'ISHLASHDAN IBORAT. SHUNDAY EKAN, HAR BIRIMIZ TIBBIYOTIMIZ ZAHMATKASHLARINI, FIDOYI SHIFOKORLARIMIZNI QO'LLAB-QUVVATLASHIMIZ LOZIM.

*Mavluda IBRAGIMOVA,  
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati*

**KIRISH:** Salomatlik inson uchun eng muhim masala. Chalasavod tabibga uchrashni hech kim xohlamaydi, albatta.

Xatoni faqat savodsiz vrachlar qiladi deb o'ylaymiz. Vaholanki, hammayam odam, doktorlarning piri ham adashadi.

Amerikada tibbiy xatolarga qanday javob beriladi?

AQShning Ayova Universitetidagi Karver Tibbiyot Kolleji o'qituvchisi, fan doktori Loris Kaljian shifokor ko'p hollarda charchoq, e'tiborsizlik yoki uquvsizlik tifayli yanglishadi deydi.

Doktor Kaljianning aytishicha, jarroh adashib, bemorning sog'lom qo'li yoki oyog'ini operatsiya qilgan hollar bo'ladi. Noto'g'ri diagnoz-tashxis qo'yish hollari tez-tez uchrab turadi. Ba'zida vrach bemorni tushunmaydi yoki diqqat bilan eshitmaydi, deydi doktor Loris Kaljian.

Adashish boshqa, buni tan olish boshqa.

AQShda chop etiladigan Tibbiy Amaliyot Jurnal (Journal of Medical Practice) tahlil qilishicha, AQShda aksariyat shifokorlar xato qilganini darrov tan olib, ochiq muhokama qilishga tayyor. Chunki oshkora fikrlamagan mutaxassis haqiqiy professional emas, haqiqiy professional esa xatosidan o'rganadi. Hozir Amerikada ishlayotgan o'zbekistonlik shifokor o'z tajribasi bilan o'rtoqlashadi.

"Ikki oy oldin ko'z o'ngimda bo'lgan voqea esimda. Yuragi sog'lom bolakayga vrach adashib yurak dorilari yozib bergan. Ertalab va kechqurun ichishi kerak bo'lgan. Kichik miqdorda bo'lgani uchun ta'sir qilib ulgurmagan, ertalab obxod qilgan doktor sezib qolib, darrov kerakli idoraga qo'ng'iroq qilib, shunaqa-shunaqa ish bo'ldi deb xabar berdi. Vrachlik xatosi uchun mo'ljallangan maxsus formani to'ldirdi. Xatoni qilgan vrach jazosini tortadi bu yerda albatta."

Amerikada mana shu kabi tibbiy xato tufayli bemorga kompensatsiya to'lash odat tusiga kirgan. Shifokorlar kompensatsiya fondi uchun har oy badal to'laydi.

"Vrach, masalan, 200 ming dollar maosh olsa, shuning kamida to'rt dan bir qismini, ya'ni 50 ming dollarni davlatga yuboradi. Xato qildimi? Shu puldan bemorga kompensatsiya ajratiladi. Bundan tashqari, Amerikada hamma vrachlarning advokati bor".

O'zbekistondagi ahvolni eslar ekan, shifokor xatolar u yerda ko'pincha bosti-bosti qilib yuboriladi deydi.

"O'zbekistonda ham vrachlik xatosiga doir qonunlar bor. Lekin ishlamaydi. Ko'p hollarda bemor bilan gaplashib, ko'ndirib, imi-jimida hal qilib yuboriladi. Amerikada esa bunaqasi ketmaydi, qonunlar juda qo'rqinchli. Shuning uchun vrachlar har bir resept, har bir qog'ozni bir necha martalab tekshiradi."

O'zbekistonlik yana bir shifokor nazarida esa ba'zida noxush hodisa uchun nafaqat doktor, balki bemor ham birday javobgar bo'ladi.

"Viloyatlik bemor uzoq yillar homilador bo'lmay, davolanish uchun shaharga qatnagan. Biz belgilagan dorini ichib yurgan.

Bu dori homilador bo'lishga yordam beradi, biroq qorinda bola paydo bo'lgach, dori boshqasiga almashtiriladi. Lekin bemor homilador bo'lib qolganini bilib, hursand bo'lib, 6-7 oy davomida doktorga ko'rinish bermagan va avvalgi dorini ichib yuravergan. Natijada yuragi xasta bola dunyoga kelib, 10 kun yashab, nobud bo'lgan.

Aytmoqchimanki, hamma vaqt ham vrachni ayblash to'g'ri emas. Nafaqat shifokor, balki bemor ham o'z salomatligiga e'tibor berishi, doktor aytgan tavsiyalarga 100 foiz amal qilishi kerak."

Doktor Loris Kaljian nazarida yo'l qo'yilgan xato, albatta, aytilishi kerak. Maqsad doktorni izza qilish yoki jazolash emas, deydi u.

"Vrach aybiga iqrор bo'lsa, "ishdan haydashadi, nomimga dog' tushadi, qamashadi" deb qo'rqadi. Uni gapirtirish uchun nima qilish kerak? AQSh Kongressi 2005 yilda "Bemor xavfsizligi va tibbiy xizmatni yaxshilash to'g'risida" qonun qabul qilgan. Unga muvofiq, tibbiyot xodimlari adashsa, alohida tashkilotga hisobot beradi. Bu tashkilot uning ism-sharifini e'lon qilmay, hodisani o'rganadi va xulosa chiqaradi, mamlakatdagi barcha kasalxonalariga hisobot jo'natiladi",- deydi doktor Loris Kaljian.

Tibbiyot va sog'liqni saqlash tizimi daqiqa sayin o'zgarib, yangilanib boradi. Shunday ekan, tibbiy xodimlar va shifokorlar ham o'z malakasini oshirib borishi shart. Buning uchun esa turli jamiyatlarda sharoit turlicha. Salomatlik inson uchun eng nozik masala ekan, unga muolaja qiluvchi va uni davolovchi mutaxassislar zehni o'tkirlash – hukumatlar oldidagi asosiy vazifalarda biri emasmi?

**ASOSIY:** Kasallikning ichki holatini o'rganish ikki shaxsning psixologik muloqoti hosilasidir. Ulardan biri tibbiyot xodimi - shifokor, hamshira, ikkinchisi esa bemor. Bu o'rinda shifokor, hamshiraning shaxsi bemor ruhiyatiga ta'siri shu qadar kattaki, u hatto (ba'zi bir holatlarda) kasallikning kechishiga ta'sir qilishi ham mumkin. Shifokorlar tomonidan o'tkaziladigan ruhiy muolaja bemorga katta foyda beradi, bunda uning ishonchli so'zi juda katta ahamiyatga ega. Bu so'z shifokorning asosiy quolidir. Demak, shifokor va hamshiraning so'zi bemorga ham ijobiy ham salbiy ta'sir etishi mumkin. *Shifokor yoki hamshiraning bir og'iz so'zi bemor tuzalishiga yoki uning dardini og'irlashtirib yuborishi, boshqa ikkilamchi kasalliklarni keltirib chiqarishi ham mumkin.*

*Yatrogen kasalliklari shifokor, hamshira va sanitarlar xatti-harakatlari va gap-so'zlarning yoki bemorga qilingan boshqa salbiy ta'sirdan kelib chiqadigan xastalikdir.* Shuning uchun hamshiralar tibbiy psixologiyaning ahamiyatini boshqa xodimlarga qaraganda puxta va mukammal egallab olishlari va uni amaliyotda qo'llashlari lozim bo'ladi. Bemor yoki sog'lom odamlarning barisi ham tib xodimining noto'g'ri harakati natijasida bir xil ruhiy iztirobga yoki yatrogen kasalligiga duchor bo'lavermaydi. Yatrogeniya nevropat va psixopatlarda juda oson yuzaga keladi. Albatta, bunda ularning gavda tuzilishi va nasliy holatlari hisobga olinadi. Yatrogen kasalliklarga astenik va psixasteniklar moyil bo'lib, ular kelajakdan qo'rqadilar, uni qora tusda ko'radilar va o'zlarini ruhiy, jismoniy holatlaridan doimo hadiksiraydilar.



*Tib amaliyotida yatrogen kasalliklarga sabab bo'ladigan 4 asosiy omilni nazarda tutish kerak:*

1. Bemorning anamnezini y'ig'ish.
  2. Bemorning ichki holatini o'rganish.
1. Laborator tahliliga baho berish.
  2. Tashxis va kasallik oqibatini aniqlash.

O'zaro muloqot chog'ida bemorning oldin boshidan kechirgan kasalliklariga ham katta ahamiyat berish zarur, shuningdek, kasallik etiologiyasini va patogenezini o'rganishda bemorni ta'sirlab qo'yishdan ehtiyot bo'lish kerak. Ayniqsa, xavfli o'sma, yurak xastaligi va uyida, yaqinlarida ruhiy kasalligi mavjud bo'lgan bemorlarga nisbatan nihoyatda ehtiyotkorlik va muloyimlik bilan muomala qilish talab etiladi.

Ba'zi yatrogen kasalliklarning paydo bo'lishi bevosita instrumental yoki laborator tekshirishlarga bog'liq. Ayniqsa bunda qon, siydik va boshqalarning noto'g'ri tahlili sabab bo'ladi.

Rentgenologik va ultratovush tekshirishlarning natijalarini ehtiyotsizlik bilan aytish ham yatrogeniyaga sabab bo'lishi mumkin.

Shuni unutmaslik kerakki, qishloq varchlik punkti (QVP) ambulatoriya, poliklinika, qabul bo'limlarida, shifoxonada bemorga, avvalambor, ruhiy tinchlik yaratib berish kerak, chunki bu holat davolashning samarali quroli hisoblanadi. Yatrogeniya mexanizmlari hali to'la-to'kis o'rganilmagan, chunki shu damgacha tana va run bir-biridan ajratilgan holda o'rganilmoqda. *Umuman aytganda, har qaysi tibbiyot xodimi bemor bilan suhbatni to'g'ri tashkil qilishi, uning ishonchini qozonishi, o'zaro munosabat oraliq'ini saqlashi, o'ziga ishontira olishi, unga hamdard bo'lib, imkon qadar aniq javob qaytara olishi darkor.* Tib xodimlarining har bir xatti-harakati va gap-so'zlari bemorga yaxshi kayfiyat bag'ishlaydi va uni ruhan tetik qiladi.

Shifokor bemor bilan birinchi uchrashuvidanoq uning ruhiy holatiga nisbatan nihoyatda ehtiyotkorlik bilan muloqot qilish mahoratini takomillashtirib borish yatrogeniyaning oldini oladi.

Hozirgi kunda jahon shifokorlari orasida shov-shuvga va munozaraga sabab bo'lgan «*evtanaziya*» haqida ikki og'iz so'z. Evnataziya - bu og'ir, tuzalmas kasallikka, masalan, rakning oxirgi bosqichiga muhtalo bo'lgan bemorning o'limini istakka binoan tezlashtirish va qiynoq azoblaridan qutqarish va tabiiy o'limni turli dori-darmonlar

yordamida yengillashtirishdir. «Evtanazis» so'zi (grekcha) baxtli, azobsiz o'lim degan ma'noni anglatadi.

Keyingi yillarda tibbiyotda erishilgan yutuqlar tufayli, bemor o'limi bilan bog'liq bo'lgan deontologik muammolarga katta e'tibor berila boshlandi. Hatto og'ir holatdagi bemorlarning o'limi ham reanimatsiya (jonlantirish) bo'limida kam uchraydigan hodisa hisoblanadi. F.Benonning yozishicha: «Shifokorning burchi -faqatgina bemorni sog'lig'ini tiklabgina qolmasdan, balki shu kasallik natijasida paydo bo'lgana zobuqubatlarni, og'riqni yengillashtirish, bemorning o'limini yengil, tinch va azobsiz kechishiga yordam berishdan iboratdir. Hozirgi davrda evtanaziya haqida turli qarama-qarshi fikrlar mavjud. Evtanaziya tarafdorlari bu so'zni «yoqimli. yengil o'lim» deb baholasalar, qarshilar esa buni qotillik, deb izohlaydilar.

Tibbiyotda eng ko'p yo'l qo'yiladigan

- 1 Dori-darmonlardagi xatolar
- 2.Jarroxlik xatolari
- 3.Kasalxona infeksiyalari
- 4.Anesteziya xatolari
- 5.Giyohvand moddalarni tarqatishdagi xatolar
- 6.Yetkazib berishda xatolar
- 7.Diagnostik xatolar
- 8.Laboratoriya xatolari
- 9.Kechiktirilgan tashxis
- 10.Kutish ro'yxatlarining kechikishi
- 11.Ma'lumotli rozilikning yo'qligi
- 12.Allergiyaga e'tibor bermang.

Shifokorlik shubhasiz eng katta ma'suliyatni talab qiladigan kasb.Shifokorlar qo'lida hamma narsadan qimmatroq:bizning sog'ligimiz.Kasal bo'lganimizda, biz o'z vijdonimizni shifokorlarga ishonib topshiramiz.Shubhasiz sog'ligimizni himoya qilish uchun mukammal o'qitilgan va o'qitilgan odamlar.

Shifokor sifatida o'qish uchun olti yillik ilmiy daraja va to'rtta mutahassislik talab qilinishi ajablanarli emas.10 yildan ortiq ta'limdan so'ng, shifokor mashg'ulotlarni boshlashga tayyor.



**XULOSA:** Yurtimizda rivojlanib kelayotgan kasblar qatoriga kiradigan bu kasbni to'g'ri yo'naltirish sanaladi. Aynan hozirgi kundagi inson bilan bog'liq jadal jarayonlar asosiy sababchilari aynan shifokorlardir. Kimningdir uyiga baxt quvonch olib keluvchi insonlar ham shulardir. Yana bir bor imkoniyat berilishiga sababchi bo'lgan insonlarni farishtalar qatorida ko'rish bu juda quvonchli albatta. Bu quvonchli lahzalarni bardavom qilishdir bizning maqsadimiz. Hozirgi kunda yuqorida keltirilgan bir nechta sabablarga binoan ko'pkina voqealarni kuzatmoqdamiz. Maqsadimiz bunday salbiy oqibatlarni yo'qotish va hech qachon bunday xatolarni qayta takrorlamaslikdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mavluda Ibragimova Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati so'zlagan nutqi.
2. Amerikaovozi.com elektron sayti
3. Warbletoncouncil.org elektron sayti
4. Zdorovieinfo-ru.ru elektron sayti
5. Arxiv.uz elektron sayti